

INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING MA'NOVIY XUSUSIYATLARI

*Kulmetova Gulmira Mirzohid qizi**Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti**Xorijiy tillar va adabiyoti fakulteti**2-kurs magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek maqollarining ma'naviy xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Har ikki tilga xos bo'lgan maqollar ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ifodasi sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqollarning shakl, uslub va kontekstga ko'ra qanday ma'no kasb etishi hamda ularda milliy mentalitet qanday aks etishi masalalari ko'rib chiqiladi. Ingliz va o'zbek maqollarining umumiylik va farqli jihatlari misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Maqol, ma'no, milliylik, kontekst, frazeologiya, qiyosiy tahlil, madaniyat, til birligi.

Kirish. Maqollar xalqning asrlar davomida shakllangan donishmandligi, hayotiy tajribasi va madaniy dunyoqarashining qisqa va lo'nda ifodasidir. Ular turli xalqlarda, turli tillarda mavjud bo'lib, har bir xalq o'zining tarixiy tajribasi, urf-odati, turmush tarzi va mentalitetiga asoslangan maqollarni yaratgan. Ingliz va o'zbek maqollari ham bu borada alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ular tilshunoslikda semantik, stilistik va pragmatik jihatdan o'rganilmoqda.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek maqollarining ma'naviy xususiyatlari qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Maqollarning tarkibiy tuzilishi, kontekstda qo'llanilishi, ular orqali ifodalangan qadriyatlar va axloqiy me'yorlar o'rganiladi. Shuningdek, har ikki til maqollarida uchraydigan o'xshashlik va farqlar ham misollar asosida ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharxi. Maqollar tilshunoslikning frazeologiya sohasi doirasida ko'plab tadqiqotlarning obyekti bo'lib kelgan. Masalan, A. Kuninning ingliz tilidagi frazeologik birliklar haqidagi ishlari ingliz maqollarining semantik xususiyatlarini tahlil qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida esa A. Madvaliyev, M. Tursunov kabi olimlarning maqol va matal haqidagi tadqiqotlari alohida o'rin tutadi.

Qiyosiy tadqiqotlar sohasida esa A. Nurmonov va Z. Fayzullayevaning maqol va iboralarning tarjimasini hamda madaniy-ma'naviy farqlar haqidagi ishlari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda maqollarning kommunikativ funksiyasi, ularning konnotativ ma'nosi hamda madaniyatlararo muloqotdagi roli ko'proq yoritilmoqda.

Muhokama va natijalar. Tilshunos olim B.R.Mengliev "Hozirgi o'zbek tili" nomli kitobida maqol va matal tushunchalarini chegaralab, ularni quyidagicha

ta'riflaydi: Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi mahsuli bo'lgan barqaror birikma maqol deyiladi. Masalan, *To'g'ri o'zadi, egri ozadi. Ko'ngli qoraning yuzi qora*. Maqollar yaxlit holda yashaydi va xalqning ma'naviy boyligi hisoblanadi. Faqat shu jihatdan ular lisoniy imkoniyat sifatida baholanib, lisoniy birliklarga xos xususiyatlarga ega. Maqolning aksariyati qo'shma gap shaklli bo'ladi: 1. *O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l*. 2. *Bekorhining beti yo'q, qozon osar eti yo'q*. 3. *Bodom po'sti bilan, odam do'sti bilan*. 4. *Kamtar bo'lsang osh ko'p, manman bo'lsang, tosh ko'p*. Sodda gap tipidagi maqol ham tilda ancha: 1. *Bir tariqdan bo'tqa bo'lmas*. 2. *Arg'amchiga qil quvvat*. 3. *Beli og'rimaganning non eyishini ko'r*. To'liqsiz gap shaklli maqol ham ko'p uchraydi: 1. *Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan (qaytmas)*. 2. *Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda (bilinadi)*.

Matal ham mavjudlik jihatidan barqaror birikma holida bo'ladi. Matal deganda to'g'ri ma'no ifodalamaydigan obrazli ifoda, tugal shaklga ega bo'lmagan hikmatli birikma nazarda tutiladi. Masalan, *qizil qor yoqqanda, tuyaning dumi erga etganda, dumi xurjunda, ali desa vali deydi, berdisini aytguncha* kabi. Matalga boshqa bir gap qo'shilishi bilan fikr to'liq ifodalanadi. Masalan, *Berdisini aytguncha jim tur. Tuyaning dumi erga etganda qarzini to'laydi* kabi¹.

B.M.Jo'raeva "O'zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari" nomli dissertatsiya ishida shunday deydi: "Tilshunoslikda maqol va matalni ma'no tomonidan chegaralash maqsadga muvofiqdir, chunki ular berilayotgan xabarni ifodalash xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Matal nutqda axborot berish, maqol esa shu axborotni jonli timsollarda etkazish, uni dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo'llanadi. Masalan, matal: *Kutganga kun uzoq*. Maqol: *Tikilgan qozon qaynamas. Ochga tortgan kechga tortgan*"².

K.Imomov va boshqa mualliflarning "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" nomli kitobida maqol va matalni quyidagicha ta'riflaydi: Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olish imkoniga ega bo'lsa, matallar faqat ko'chma ma'noda qo'llanadilar. Masalan, *Dehqon bo'lsang kuz hayda; kuz haydamasang, yuz hayda* maqoli faqat o'z ma'nosida qo'llanilsa, *Quruq qoshiq og'iz yirtar* maqoli esa ko'chma ma'noda ishlatiladi. *Burnini erga ishqamoq* matali esa hamma vaqt faqat ko'chma ma'noda qo'llanadi³.

Tilshunos olimlardan T.Mirzaev, B.Sarimsoqovlar "O'zbek xalq maqollari nomli" lug'atida maqol va matalga quyidagicha ta'rif beradilar. 1) Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Bu fikr qat'iy, lo'nda xulosa sifatida ifodalanadi. Fikrni lo'nda va ixcham ifodalashga imkon beruvchi ikki mantiqiy markazdan tashkil topgan

¹ Менглиев Б.Р. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: "Тафаккур бўстони", 2018. – Б.191-192.

² Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. Филол. фан. доктори дисс. автореферати. – Самарқанд, 2019. – Б.16.

³ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.92.

yaxlit kompozitsiya asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham maqolda birorta ortiqcha soʻz, ortiqcha tasviriylilik uchramaydi. Chunki maqoldagi ixcham fikrning oʻzi estetik jihatdan katta mohiyat kasb etadi. Bu mohiyatning yuzaga chiqishi hamma vaqt ixcham badiiy shakl vositasida amalga oshadi. Matalda bunday xususiyatlar koʻrinmaydi. Ular obrazli birikma yoki ibratli gapdir; 2) Maqol uchun maʼlum bir fikrni mantiqiy izchillikda va qatʼiy qutbiylikda ifodalash xarakterlidir. Qaysi bir maqolni olmang, u voqelikni mudom yo keskin ijobiy, yo keskin salbiy nuqtai nazardan baholaydi. Shuning uchun ham izchil mantiqiy qutbiylikni ifodalashda ikki qismdan iborat tuzilishga ega boʻlgan badiiy shakl yetakchi rol oʻynaydi. Bu esa oʻz navbatida maqolning tez va keng ommalashishiga yoʻl ochib beradi; 3) Maqol asosida ibratomuz tugal fikr yotsa, matal asosida chiroyli, obrazli, ammo tugal boʻlmagan ifoda yotadi. Binobarin, matal ixcham, bir komponentli kompozitsiyaga ega boʻladi; 4) Maqollar ham oʻz, ham koʻchma maʼnolarda qoʻllanilish imkoniyatiga egadir. Bu xususiyat maqollarning tematik doirasini, qoʻllanish chegarasini kengaytiradi. Shuning uchun ham maqol bir yoki bir necha xalqlar orasida keng tarqalgan boʻladi. Matallar yoki boshqa yumuq iboralar esa lokal qoʻllanilish chegarasiga ega boʻlib, ular hech qachon millatlararo isteʼmol doirasida uchramaydi; 5) Matal nutqda koʻrsatish vositasi boʻlsa, maqol dalillash, isbotlash vositasi sifatida qoʻllaniladiki, ularning bunday farqli xususiyatlari haqida boshqa folklorshunoslar ham toʻxtalib oʻtishgan⁴.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz va oʻzbek maqollari xalq ruhiyatining, hayot falsafasining ifodasi boʻlib xizmat qiladi. Har ikki til maqollarida oʻxshash semantik tuzilmalar va umumiy gʻoyalar mavjud boʻlsa-da, ularning ifoda vositalari va madaniy asoslari farq qiladi. Maqollarni qiyosiy tahlil qilish orqali til va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni chuqurroq anglash mumkin boʻladi. Shu jihatdan mazkur mavzu til oʻrganuvchilari, tarjimonlar va madaniyatshunoslar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Жўраева Б.М. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. доктори дисс. автореферати – Самарқанд, 2019. – 74 б.
2. Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Фарғона, 2018. –144 б.
3. Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида "оила" бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси: Филол. Фанлари (PhD) фалсафа д-ри... дисс. – Самарқанд, 2021. – 144 б.

⁴ Ўзбек халқ мақоллари: [2томлик]/[Масъул муҳаррирлар: Мирзаев Т.,Саримсоқов Б.].1-т. – Тошкент,“Фан”, 1987. – Б.17.

4. Эргашева Г.И. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. номзоди дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.
5. Рахимов.О.М. Инглиз ва ўзбек мақолларида миллий дунё тасвирининг акс этиши. Магистрлик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент. 2015. – 75 б.
- 6.